



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

5850100 “ATROF-MUHIT MUHOFAZASI” ta’lim yo’nalishi IV-bosqich talabasi

“Eshdavlatova Hulkar Mengliqulovnaning

**«Qamashi non ishlab chiqarish korxonasidan chiqadigan gazlar tahlili va
me'yorlashtiruvchi innovatsion texnik echimlarini tanlash»**

mavzusida

Bitiruv Malakaviy Ishi

Rahbar:

dots. Muradov Sh.O.

Ishni bajaruvchi:

Eshdavlatova H.M.

Himoyaga ruxsat etildi:

«Himoya uchun DAKga yuborildi»

Kafedra mudiri:

Fakultet dekani:

dots. Muradov Sh.O.

dots. Haydarov Sh.A.

«__» _____ 2013 yil

«__» _____ 2013 yil

Qarshi – 2013 yil

Mundarija.

	Kirish.....
1.	Umumiy qism.....
1.1.	Korxona joylashgan hududning fizik geografik tavsifi.....
1.2.	Suv resurslari haqida ma'lumot.....
1.3.	Tumanning yer resurslari haqida ma'lumot.....
1.4.	O'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumot.....
1.5.	Atmosfera havosi haqida ma'lumot
1.6.	Hududning metrologik holati.....
1.7.	Korxona joylashgan hududning shand yo'nalishini tuzish.....
2.	Maxsus qism.....
2.1.	Korxonani atmosfera havosini ifloslantiruvchi manba sifatida hususiyati
2.2.	Non kombinatidan chiqayotgan chiqindilarning umumiy tavsifi
2.3.	Ifloslovchi moddalar ajralib chiqadigan manbalar tavsifi
2.4.	Atmosferaga chiqarilayotgan ifloslovchi moddalar tavsifi
2.5.	Korxonaning kategoriyasini aniqlash
2.6.	Qamashi non kombinatidan chiqayotgan chiqindilarning tarqalish davrasini hisoblash
3.	Mehnatni muxofaza qilish.....
3.1.	Mehnatni muxofaza qilish qonuniyatlari asosi.....
3.2.	Sanoat korxonalarida mehnatni muxofaza qilish xizmatini uyushtirish.....
3.3.	Sanoat korxonalarida jaroxatlanish va kasb kasalliklarini o'rganish usullari
4.	Iqtisodiy qism.....
4.1.	Korxonalardan atmosfera chiqayotgan chiqindilar tasirida atrof muhit ifloslanishi iqtisodiy zarari hisobi.....
4.2.	Atrof muhitni ifloslantiruvchi modda tashlangani uchun to'lanadigan so'mma hisobi
	Xulosa.....
	Adabiyotlar ro'yhati.....

Kirish.

Ma'lumki fan va texnika rivojlanishi bilan atrof muhitning holati sezilarli darajada o'zgarib bormoqda.

Atrof muhitning holatining buzilishi, azon qatlamining siyraklashishi, iqlimning o'zgarishi bularning barchasini misol qilib keltirish mumkin. Yaqin kelajakda atrof muhitning holatini oldini olish chora tadbirlari ishlab chiqarish kerak bo'lmasa sayyoramiz og'ir ahvolga tushib qolishi aniq.

Tabiat boylikarini mahsuldorligini va tabiiy sharoitning inson uchun qulayligini saqlab qolish uchun ularni ehtiyojga yarasha meyorida foydalanishni hamma joyda amalga oshirish tabiatni izchillik bilan boyitib boorish uning komponentlari o'rtasidagi o'zaro tabiiy muvozanatni barqaror saqlab turish zarur. Buning uchun ishlab chiqarish korxonalarida chiqindisiz ishlaydigan samarali pisdesitlarning qo'llanilishi va miqdorini qisqartib borish havova suv havzalarining turli chiqindilar bilan ifloslanishi tez suratlarda kamaytirib borishga erishish har bir korxona, tashkilot vazirlikning va har birimizning muqaddas vazifamiz bo'lmog'I lozim.

Hozirgi kunda atrof muhit holatni saqlab qolish bo'yicha bir qancha qonuniyatlar qabul qilindi. Ko'plab loyihalar, kelishuvlar imzolanoqda, jumladan "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan. Prezidentimiz I.A.Karimovning " "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikkka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari" asarida havo bo'shlig'ining ifloslanishi ekologik xavfsizlikkka solinayotgan tahdidlar, degan talablardan kelib chiqqan va jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari kitobida korxonalarni modernizatsiya qilish yangi texnika va texnologiyalar bilan taminlash degan so'zlariga 1997 yilda 38 ta rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ishtirokida imzolangan kiota pratakoliga qaratilgan.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib Qamashi non ishlab chiqish korxonasidan chiqadigan gazlar tahlili va meyorlashtiruvchi ilavotsion texnik yechimlarni tanlash mavzusida BMI ni yozishga kirishdim.

1. Umumiy qism.

1.1. Korxona joylashgan hududning fizik geografik tasnifi.

Qamashi non ishlab chiqarish korxonasi Qamashi tumanining markazida joylashgan bo'lib G'arbiy tomonida Amir Temur ko'chasi joylashgan. Korxonani tevarak atrofida o'rab turgan tashkilot va korxonalar joylashuviga qarab shaharni iqlab chiqarish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bilan chegaradoshligini bilamiz

Qamashi non ishlab chiqarish korxonasi shimol va janub tomondan Qarshi Qamashi tez tibbiy yordam, shimolda xamza ko'chasi G'arbdan tor ko'cha orqali Chimqo'rg'on 6 bilan chegaralangan.

Tashkilotning umumiy yer maydoni 0,73 km² ni tashkil qiladi. Korxona asosiy chiqazish bazasi atmosfera havosini ifloslantiruvchi zararli moddalar keladigan manbalar asosida asosan korxona hududa joylashgan obekt va inshootlardan tabiiy holda ham inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalardan kelib chiqadigan doimiy ravishda atmosfera havosini ifloslantiruvchi zararli moddalar ishlab chiqaruvchi moddalarnig majburiyligidir. Ushbu hudud uchun shimoliy tarafdin bo'lladigan sovuq havo oqimi, ham g'arb tomondan bo'ladigan issiq havo oqimi yo'nalishlarida natijasida hosil bo'ladigan keskin continental iqlim mavjuddir.

Tuman iqlimi O'rta Osiyo iqlimiga xos bo'lib, yozi issiq, quruq va uzoq emas. Bu holat Qamashi tumaning tekislik va adir mintaqalari uchun tipikdir. Ammo tumanning tog'li hududlarida iqlim biroz yumshoqroqdir, meteriologik elementlar esa joyining balandligi, yon bag'ir ekspozitsiyasiga qarab o'zgarib boradi. Tumanning iqlimiy xususiyatlarini tariflashda malum bir davrda faoliyat ko'rsatayotgan Qamashi va Chimqo'rg'on meteorologiya posti, hozirda ham faoliyat ko'rsatayotgan qo'shni G'uzor meteriologiya stansiyalari, Boyli metreologiya posti hozirda ham faoliyat ko'rsatayotgan qo'shni G'uzor meteriologiya stansiyasining malumotlaridan foydalaniladi. Viloyatning tog'li qismidagi iqlim hususida baland tog'li mingchuqur gedrometeriologiya stansiyasi harakterlidir. Iyyul oyining o'rtacha harorati tumanning tekislik qismida 28 gradus, tog'li qismida esa 21 gradus, tog' oldi tekisligi bo'lgan Qamashida 27 gradusni tashkil qilsa, tog'lardagi xususan Mingchuqur metereologiya stansiyasida 21 gradus eng sovuq oy bo'lgan yanvarning o'rtacha tumannning g'arbida 0 gradus Qamashida 0,8 gradus baland tog'larda esa -5 gradus demak havo harorati balandlikka chiqqan sayin pasayib boradi.

Atmosfera yog'inlarining miqdori xuddi shu yo'nalishda ko'payadi. Qamashi tumaning shimoli g'arbida joylashgan 480m mutloq balandlikdagi Boyli metreologiya stansiyasida yog'in miqdori 333mm. Qamashi shahrida 327mm, Mingchuqur stansiyasida 612mm baland tog' bo'lgan Mingchuqur maydonida

yog'in miqdorining nisbatan kam bo'lganligiga sabab G'arbdan keluvchi havo massalarinig yo'lidan Xontaxti tog'lari bir qadam to'sib turadi.

Birinchi sovuq Qamashida 2-noyabrda oxirgi sovuq esa 22-martda kuzatiladi. Vegetatsiya davri tekislik qismida 250 kun, tog'li qismlarda esa 200 kunni tashkil qiladi. Yillik yog'in miqdori esa, 327mm dan 450-500mm gacha (tog'larda) bo'ladi.

Tekislikda sovuq kunlar bo'lmaydigan kunlar soni jihatidan viloyatda G'uzor tumanidan keying o'rinda turadi. Malumki 5gradus haroratda o'simliklarning rivojlanishi uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Oxirgi sovuqgacha o'rtacha sutkalik haroratning 5gradusdan yuqori bo'lgan kunlar soni 32 kunni tashkil qiladi. Kuzda esa birinchi sovuq tushguniga qadar bo'ladigan kunlar 5 kunni tashkil etadi. Absolyut maksimal harorat Qamashida 39-41 gradus absolyut minimal harorat -20gradusni tashkil etadi. Ko'p yillik kuzatishlarga qaraganda o'rtacha sovuq kunlar tumanning tekislik qismida 67 kunni tashkil etadi. Eng ko'p sovuq bo'ladigan yillarda 96-100kun eng kam sovuq bo'ladigan yillarda esa 35 kun bo'ladi. Shuni takidlash lozimki Qamashi tumaning tekislik mintaqasidagi havo harorati Qarshi shahriga qaraganda bir qadar yumshoqroq bo'lishi kuzatishlar davomida aniqlangan.

O'rtacha ko'p yillik tushadigan yog'in miqdori (mm hisobida).

Metstansiya	Balandlik(mm hisobida)	Yog'ingarchilik miqdori
Boyli	488	333
Qamashi	520	327
Chiroqchi	543	368
Yakkabog'	575	364
G'uzor	524	285

Qamashi va Boyli meteriologiya stansiyalarida kuz oyiday yog'ingarchiliklar yog'ishi 14% qish oylarida 38% bahor oylarida esa 45%ni yani eng ko'p yog'ingarchiliklar yog'adigan oylar bahor oylaridir. Eng kam yog'ingarchilik bo'ladigan oylar yoz oylaridir. Yoz oylarida yillik yog'in miqdori 3%ni tashkil etadi. Bundan tashqari o'rtacha yillik havoning namligi 8,1 milliarddir. Ammo chang to'zonli kunlar yoz oylarida tez-tez bo'lib turadi. Bu holda bug'lanish imkoniyatining kata bo'lishiga olib kelgan. Bug'lanish imkoniyati 2119mm dir.

Qashqadaryo viloyatining boshqa joylarida bo'lgani kabi Qamashi tumanining tekislik qismida ham asosan shimoli g'arbiy tomondan ko'proq shamol esadi. Shamolning tezligi o'rtacha sekundiga 37 metrni tashkil etadi. Barcha yo'nalishdagi shamollar ichida (kuzatishlarga qaraganda) shimoli-G'arbiy shamollar 27% G'arbiy shamollar 25% janubiy-g'arbiy shamollar 25% janubiygarbiy shamollar 17%ni tashkil qiladi. Ayni paytda sharqdan esadigan

shamollar atigi ikki foizga teng. Bu holda sharq tomondan baland tog'lar to'sib turganligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib Qamashi tumanining iqlimi barcha xususiyatlari bo'yicha Qashqadaryoning tekislik qismi uchun xos bo'lgan, keskin continental yo'lining sal yumshagan varizntida, uning tekislik va tog' oldi mintaqalarida namoyon bo'lgan.

1.2. Suv resurslari haqida ma'lumot.

Qamashi tumanida hamma joyda ham suv bir xil taqsimlangan. Tumanning tekislik qismlarida daryo suvlaridan unumli foydalaniladi. Daryo suvlari sug'orish uchun qulay imkoniyatga ega. Biroq tumanning janubi-sharqida joylashgan g'allakor fuqarolar yig'inida hududida adirlar bo'lib, bu yerda bahorikor dehqonchilik asosan qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Xo'jalikning 300 gektar obikor yerlari Jangor suv omboridan suv chiqadi xolos. Tuman aholisining ko'pchilik ichimlik suv uchun arston quduqlardan foydalaniladi.

Tumanning tekislik qismidan Qashqadaryo oqib o'tadi. Daryoning umumiy uzunligi 310km. Yillik suv to'planishi 1310 (mln m) o'rtacha yillik suv sarfi 35,2 m³ sek daryoning eng ko'p suv oqimi mart va aprel oylariga to'g'ri keladi. (72,4 m kub sek) eng kam suv oqimi avgust oylariga to'g'ri keladi. (7,9m³ sek)

Sangar daryosining umumiy uzunligi 76 kilometr bo'lib, U yuzdan ortiq bir qancha buloqlar va tog'dagi qor suvlaridan to'yinadi. Daryoning yillik suv to'planishi 20 mln³m. O'rtacha suv sarfi esa 0,87 m³ sek. Eng ko'p suv oqimi aprel va may oylariga to'g'ri keladi. Langar daryosining suvi yil bo'yicha notekis taqsimlangan. Bahor oylarida yillik suv miqdorining 57-60% va yoz oylariga esa 17% to'g'ri keladi. Langar daryosining suvidan oqilona foydalanish va tez-tez bo'lib turadigan talofatli sel oqimlaridan saqlanish maqsadida Boburtepa suv ombori barpo etilgan.

Sangar daryosining Boburtepa suv omboridan (Hozirgi kunda Sangar suv ombori deb yuritiladi) Quyi qismidagi o'zaniga kelib qo'shiluvchi bir qancha soylardan yig'ilgan suvlar va zax suvlardan to'plangan oqova suvlar Chim qishloqdan janubdan tabiiy o'zada Qilli sho'r suvli anhorni hosil qiladi. Bu suv Qoratikan qishlog'I yonidan Qashqadaryoga kelib qo'yiladi.

Katta O'ra daryosi boshidan to oxirigacha tog'lar bag'ridan oqadi va bir qancha kata-kichik irmoqlar kelib qo'shiladi. Daryo suvi kam miqdorda sug'orishga ishlatiladi. Hammasi bo'lib 280 gektar maydon sug'oriladi. Daryoga o'ng tomondan Qorako'l, Oq suv va chap tomondan esa yong'oqli va Ferakli irmoqlari kelib qo'shiladi. Daryo asosan qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Shuning uchun ham relefga bog'liq ravishda bu daryo havzalarida jalalarning bo'lishi daryolarning toshishiga olib keladi. Toshqinlar esa o'z navbatida qishloqlarga kata talofatlar keltiradi. Qashqadaryo havzasiga kiruvchi

Yakkabog'daryo va G'uzor daryosining yuqori qismlari (Qizildaryo, Tirnasoy va Katta o'radaryo) ham tuman hududidan suv oladi.

Tumanda 3 ta suv ombori mavjuddir. Shu suv omborlar ichida eng yirigi bu Chimqo'rg'on suv ombori hisoblanadi. Chimqo'rg'on suv ombori Qashqadaryo viloyati bo'yicha ham eng kata suv omborlardan biri hisoblanadi. Bu suv omborning suv sig'imi 500 mln m³ bo'lib kattaligi jihatidan viloyatda Talimarjon suv omboridan keying o'rinda turadi. Chimqo'rg'on suv ombori 1963-yilda ishga tushirilgan sug'oriladigan 38 ming gektar maydonni suv bilan taminlaydi. Dambaning balandligi 33 metr uzunligi 7500m bu suv omborida xo'jalikning ko'p tarmoqlarini rivojlantirishda foydalaniladi. Tumanning qishloq fuqorolar yig'ini va fermerlarning yer maydonlarini sug'orishga kanal va ariqlardan foydalaniladi.

O'ng qirg'oq Botosh, Oqrabot, Chap Janbuz, Niyoziy, Uchtepa, Qovchin, Qorabog' va shuningdek. Sangar daryosi tarkibidan tashkil topgan.

Yuqorida takidlangandek Sangar daryosi suvidan Oqilona foydalanish va tez-tez sodir bo'lib turadigan talofatli suv oqimlaridan saqlanish maqsadida Sangar suv ombori (eski nomi Boburtepa) bunyod etildi. Bu suv ombor 1974-yilda ishga tushdi. Suv sig'imi 7,3 mln m³ kub dambaning balandligi 34 metr, 2,3 ming gektar maydonni suv bilan taminlaydi. Dambarning uzunligi 1100 km.

Qamashi suv ombori Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida barpo etilgan. Hidrotexnik inшоati 1957-yilda Qamashi shaxridan 5km uzoqlikdagi sho'rabsoy tabiiy botqoqligini tuproq to'g'on bilan to'sib hosil qilgan.

To'g'onning dastlabki balandligi 10m ustki qismining uzunligi 900m, suv ombor atrofida ko'tarilgan marzalar bilan birgalikda 1500metr hajmni esa 11mln m³ kub 1962-yilda to'g'on rekonstruksiyasi qilinib, 3 metr

Ko'tarilgan va umumiy hajmi 17,3 mln m³ kub ga va foydali hajmi 16mln m³ kub ga yetkazilgan. Maksimal chuqurligi 12 metr o'rtacha chuqurligi esa 60 metr suv sathining yuzasi 1,5 km²

Suv ombori Yakkabog' daryosidan suv oluvchi Qorabog' kanali va suv sarfi 4m³/sekund bo'lgan 6km uzunlikdagi suv keltirish kanali orqali aprel, iyyulda to'ldiriladi. Qamashi suv omborining suv chiqargichidan suv sarfi 4km³/sek bo'lgan 2,9km uzunlikdagi kanal suv olinadi, Suv ombor Qamashi tumanida 5mingga (hektar) ekinzorni sug'orish imkoniyatini beradi.

Qashqadaryo viloyatinang suv omborlari haqida ma'lumot

Suv omborlarining nomi	Foydalanishga Joylashgan Namunaviy tuman	Topshirilgan yil	Mln.m.kub	Mln.m.kub
Chimqo'rg'on	Qamashi	1963	500	425
Pachkamar	G'uzor	1968	260	243
Qamashi	Qamashi	1972	25	23.8
Sangar	Qamashi	1974	7.3	7
Yangiqo'rg'on	Yakkabog'	1975	3.3	3
Sho'robsoy	Kitob	1977	2.0	1.8
Toshloqsoy	Shaxrisabz	1981	7.0	6.7
Qizil suv	Yakkabog'	1982	6.5	6
Talimarjon	Nishon	1986	15.25	1445
Xisorak	Shaxrisabz	1987	170	155
Qalqama	Chiroqchi	1987	9.4	9.3
Dehqonobod	Dehqonobod	1982	27.0	6.0

Hisor tizmasining eng baland tog' yonbag'irlarida kichik-kichik muzliklar ham mavjud. Tog'lardagi qor qoplami daryolarni suv bilan taminlaydi..tekisliklarda tuproqda namlik uchun imkon yaratadi.

1.3. Tumanning yer resurslari haqida ma'lumot.

Tabiiy resurslar orasida jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini xo'jalikning barcha tarmoqlarini rivojlantirishning va joylashganligini asosi bo'lgan yer resurslari alohida o'rin tutadi. Yer nafaqat barcha ishlab chiqarish kuchlaerini aholi qurgan sanoat korxonalarini joylashganligini hududiy asosining qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hamdir.

Qamashi xo'jaliklari foydalanishi uchun bo'lgan kata yer fondi mavjud. 2012-yil ma'lumotiga qaraganda tumanning umumiy yer fondi: 182.651 shundan 71.785 ga qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga mo'ljallangan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga sug'oriladigan yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish kata ahamiyatga ega. Shu sababli sug'oriladigan yerlarda lalmikor yerlarga qaraganda bir necha bor ko'proq hosil olinadi.Tumanda sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlar maydonining kengayishi Amudaryo havzasidan kanallar orqali suv olishiga bog'liq. Sug'orma dehqonchilik sharoitlarida Tabiatdan oqilona foydalanishning xususiyatlaridan biri yer resurslaridan uzviy bog'liq ravishda to'g'ri foydalana bilishdir, Chunki suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish sug'oriladigan yerlarda ekologik iqtisodiy nuqtai-nazardan nomaqbul jarayonlarning kuchayishiga va natijada yerlarni mahsuldorliginni kamayishiga

olib keladi. Sug'oriladigan yerlarni tabiiy imkoniyatlaridan foydalanish tabiiy hududiy komplekslarning tubdan o'zgarishiga orasidagi muvozanatni buzilishiga olib keladi. Viloyatdagi kabi tumanning ham sug'orma dehqonchilik qilinayotgan yerlarda ham suvdan sug'orishda tejamsizlik bilan foydalanayotganligi gidrometriologiya imkoniyatlaridan sug'oriladigan maydonga 40-50 zavur to'g'ri kelishi kerak, lekin bu ko'rsatkich mezonidagiga nisbatan deyarli ikki marta kamroqdir. Shu sababli mavjud zavurlar orqali barcha sho'r suvlarni sug'oriladigan yerlardan tashqariga oqizib yuborishning imkoniyati yo'q. Natijada sho'r suvlarni tashqariga oqizib yuborishda tuzlarning deyarli yarmi daryolarda qolib ketadi, buning natijasida sho'rlanish jarayoni kuchaymoqda.

Yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishda erroziya jarayonlariga qarshi o'tkaziladigan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududda sug'orish eroziyasi tufayli tuproq hosildorligini kamaytirish olib kelmoqda, ya'ni har bir gaktar maydondan 0,5-0,8 tonna chiqindi, 110-120 kg fosfor, 110-115kg azot yuviladi. Hosildorlik erroziya sust bo'ladigan yerlarda 15-20% ga, kuchli bo'ladigan yerlarda esa 50-60% ga kamayish aniqlangan. Erroziya jarayonlarini oldini olishga qaratilgan agrotexnik tadbirlar xilma-xildir. Ular orasida ekinzorlarni exatazorlar bilan o'rash katta iqtisodiy samaraga ega. Qishloq xo'jaligida, ayniqsa sug'orma dehqonchilikda foydalanilayotgan yerlarning unumdorligi yildan-yilga kamayib bormoqda. Keyingi yillarda kata maydonlarda serxarajat mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalarning kata miqyosida qo'llanilishi, og'ir vaznli texnika vositalaridan foydalanishi tufayli tuproqlarning tarkibi va unumdorligida mutanosiblikni saqlaydigan mikroorganizmlarga ham kata zarar yetkazilmoqda.

Mikroorganizmlarning faoliyati natijasida o'simlik va hayvon qoldiqlarining chirishi tufayli hosil bo'ladigan chirindining miqdori tuproqlarning haydaladigan qatlamida 2-3 marta kamayadi. Shu narsani takidlash lozimki tuproqda chirindining miqdori kam bo'lgan organik o'g'itlar yetarlicha berilmaganda mineral o'g'itlarni kata miqdorda ishlatish iqtisodiy samara bermaydi, aksincha xosildorlikni kamayishiga, maxsulot sifatini yomonlashuviga, tuproq tarkibining buzilishiga olib keladi: o'tkazilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, hozirgi agrotexnika sharoitida o'g'itlarning atigi 35-40%ni o'simliklar o'zlashtiradi, qolgan 60-65% tuproqda to'planadi. Yomg'irlar yer osti suvlarini to'ldiradi.

1.4. O'simlik va Hayvonot dunyosi haqida ma'lumot.

Qamashi tumani o'simlik qoplamining sharoitida va tarqalishida hududning geologic taraqqiyoti, geografik o'rni va hozirgi tabiiy sharoitlari asosini ahamiyat kasb etadi. O'simlik turlarining tarqalishida esa relef tuproq va iqlim sharoitlari muhim omillar hisoblanadi. Tuman florasida maxalliy o'simlik turlaridan

tashqari Eron, Avg'oniston va O'rta dengiz bo'yi o'lkalari uchun xos bo'lgan o'simlik turlari ham mavjud.

Qashqadaryo viloyatining tabiiy florasida 1200 yaqin yuksak turlaridan tashkil topgan bo'lib, ularning 106 turi oziq-ovqat va chorvachilikda yem-xashak sifatida ishlatiladi, 138 turli qimmatbaho dorivor, 2,6 turli efir moyi, 61 turli asal beruvchi, 62 turi oshlovchi 138 turli qimmatbaxo dorivor, 26 turli o'simlik, 53 turli bo'yoq beruvchi, 19 turli qimmatbaxo bixli o'simliklardir. Bu turlardan tashqari tuman florasida tarkibida manzarali, vitaminli va tolali o'simliklar ham uchraydi.

Globotanik jihatdan rayonlashtirishning yangi sxemasida muborak tumani ana shu chorvachiliklardir. Rayonlashtirishda asosiy asoslanib cho'l mintaqasida yillik o'rtacha harorat 16-18 gradus yanvarning o'rtacha harorati 0.1-3.3 gradus bo'lib, 270-320 kun davomida harorat 5,0-0 dan yuqori.

Cho'l mintaqasining o'simlik qoplamida qadimiy handun (juzgun) Shuvoq eferme chorvamuqlarning asosida asora assotsiyalar ustunlik qiladi. Relefning pastkam joylarida Shuvoqlar va Sho'rolar o'sadi.

Bu mintaqaning qumli cho'llarida ko'chma qumlarga moslashgan tamofit o'simliklar-qandim (tutun), quyonsuyak, qizilqandim mustahkamlangan qumlarda esa Shuvoq, Urg'ochi Selin, tuyamaymon o'sadi: h hududning ichki tekisliklari uchun efemer va efemeroid o'simliklardan Cherkoz, Singern, isiriq oq chitir butalardan yulg'un, qorasaksovul va boshqa o'simliklar xosdir. Bundan tashqari kam sho'rlangan joylardan pashmoq Sho'ra, tresken, dastarbosh, kuchli sho'rlangan yerlarda esa qorasho'ra, Sersazan, sho'rajriq, qizilmiya va boshqa o'simliklar uchraydi.

Mintaqaning daryo terassalarida, vodiylarida va botiqlarda ajriq va yantoq, qizilmiya kabi o'simliklar botqoq tuproqli joylarda esa qamish, lux, qiyoq, bug'doyiq, chuchukmiya kabi o'simliklar tarqalgan.

O'simliklar kislorodni yetkazib yer usti va yer osti suvlari rejimiga ijobiy ta'sir ko'rsatib tuproqni shamol va suv erroziyasidan saqlaydi. Bu joy tabiat uchun muhim hisoblanadi. Tumanning geografik o'rni va landshaftlarning xilma-xilligi hayvonot olami shakllanishi tarqalishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Suvsiz qumli cho'llar tog' o'rmonlari va daryo vodiylarining ekologik sharoitlari xayvonlarning hayot kechirishi uchun bir xil emas. Shunga ko'ra har qaysi landshaft uchun yoki bu sharoitga moslashgan hayvonlarning ma'lum turlari xosdir.

O'zbekiston hududida xususan Qamashi tumani mintaqasi turli o'lkalarning hayvonlari yozda tuproq haroratining yuqori bo'lishiga (50-60) va uzoq suvsizlikka moslashgan bu yerdagi fauna vakillarining muhitiga moslashishning yana bir belgisi ularning yer rangida yani qum chang ustida bo'lishidair. Xududdagi ayrim hayvonlar (yumronqoziq, qo'shoyoq va boshqalar), istemol qiladigan tarkibidagi ozgina namlik bilan kifoyalanadi va suvsiz hayot kechira oladi. O'simliklarning siyrakligi, ovqat va suvning taqchilligi tufayli hayvonlar tez harakatlanishi qobiliyatiga ega bo'lsada yozda kunduzi tuproq 60-70gradus qiziganda ularning

faoliyati keskin susayadi. Bu xol ko'pchilik xashoratlarga, chayonlarga, kaltakesaklar, ilonlar, sut emizuvchi ayrim hayvonlarga va ba'zi bir qushlarga xosdir. Hayvonlarning hayot sharoiti qumli, sho'rxok, oshloq cho'llarining hayvonlaridan farqlanadi. Bu yerlarda yog'in sochin bo'lishi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Asosan efemer o'simliklar o'sadi va may oyining bu o'simliklar ham qovjirab qoladi. Hayvonlar ham o'simliklar quyosh isitishi bilan uyqudan uyg'onadilar zo'r berib oziqa bilan oziqlanadilar va ko'p o'tmay urchiy boshlaydi. Mintaqaning umurtqali sut emizuvchilari, sudralib yuruvchilar, qushlar quruqlikda yashovchi haroratlar qisqichbaqalar, molyuskalar, chuvalchanglar va boshqa soda hayvonlar uchraydi. Bu hududga mansub bo'lgan sut emizuvchilardan shalpanquloq, tipratikan, qumquyoni, yumronqoziq, seversuv qo'sh oyog'I barak barmoqli qo'shoyoq, kata qumsichqon, bo'ri, tulki va boshqalar yashaydi.

Jazirama issiq kunlarda daraxtlarning uchlarida dasht agamasi deb ataluvchi kaltakesak ko'p bo'ladi. Umuman cho'l hududidagi ko'pgina hayvonlar endem (malum bir grafik viloyatda yashaydigan va boshqa joylarda uchramaydigan) hayvonlardir. Tumanda ham bu turlarni bir necha xilini uchratish mumkin shuningdek cho'l toshbaqasi va echkeemarni ham.

Cho'llarda kon ishlari davomida hududni florasini nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa bazi tur va navlarni yo'qolib ketishi va buzulishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ba'zi tur va navlarni yo'qolib ketishi va buzulishiga olib kelmoqda. Turlarning yo'qolib ketishi natijasida ekologik zanjirni uzulishi kuzatilmoqda.

1.5. Atmosfera havosi haqida ma'lumot.

Shaharlar atmosferasini ifloslanishi darajasini ko'rsatuvchi omillarga asosan quyidagilar kiradi.

Tabiat va tabiiy jarayonlarning tabiiy tavsiflar bilan bog'liq omillar. Masalan atmosfera yog'inlarining turi va jadalligi joyning tabiiy geografik va atrof muhitga tasir etuvchi halokatli hamda davomiy tabiiy jarayonlar kuchli shamol, quyun va boshqalar.

Inson faoliyati bilan bog'liq omillar (antropogen yoki texnogen omillar) havo havzasi tarkibining sifat va miqdor ko'rsatkichlar faoliyatining tasiri salbiy tavsifga ega.

Antropogen omillarni atmosfera musaffoligiga tasir etish ko'rsatkichlariga qarab shartli ravishda uchta guruxga bo'lish mumkin.

1. Maxalliy yoki local ifloslanishi belgilovchi omillar.
2. Katta hududlarni ifloslanishi belgilovchi omillar.
3. Atmosferani global belgilovchi omillar.

Bajarilayotgan yilda inson faoliyatining atmosferaga tasirini mahalliy local omillarini ko'rib chiqamiz.

Atmosfera havosining muhim darajada ifloslanishi kishi organizmining turli kasalliklar bilan og'rishiga olib keladi. Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino aytganlarida odamning salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan. Respublikamizda atmosfera havosiga chiqarilayotgan turli chiqindilar 80-yillarning o'rtalariga nisbatan kamayish yo'nalishida bo'limga qaramasdan hali ham yuqori ko'rsatkichlarni tashkil qiladi. 1985-yilda jami chiqindilarni miqdori 4,2 mln tonnani tashkil qilgan xolda 1994-yilda bu raqam 2,4 mln tonnagacha kamayadi. Bu jihatdan sanoat korxonalaridan chiqarilgan chiqindilar 1,5 mln tonnadan 0,9 mln tonnagacha qisqaradi. Transport vositalaridan chiqqan ifloslovchi moddalar esa 2,7 dan 1,4 mln tonnagacha kamayadi. Buncha chiqindilarning kamroq chiqarilishi korxona durdonalariga turli konstruksiyadagi gaz va changni ushlab qoluvchi hamda tozalovchi moslamalarining o'rnatilishi va mavjudligining samaradorligini oshirish sabab bo'ladi. Shuningdek ishlab chiqarish hajmining kamayishi va shunga muvofiq yoqilg'idan foydalanish miqdorining pasayishi tasir ko'rsatgan.

Ma'lumotlarga ko'ra sanoat korxonalarida 1981-1985 yillarda har yili soatiga 421,3 ming m³ gazni tutib qoluvchi va zararsizlantiruvchi moslama ishga tushirilgan bo'lsa 1986-1990 yillarda 723 ming m³ 1991 yilda 1282,3m³ 1992 yilda 79,6 ming m³ 1993 yilda 357,8 ming m³ 1994 yilda 514 ming m³ gazni tutib qoluvchi va zararsizlantiruvchi moslamalar o'rnatildi.

Respublika 1992-yilda jami ushlab qolingan va zararsizlantirilgan texnogen chiqindilar miqdori 1985-yilga nisbatan 6% ga ortgan, ya'ni 1985 yilda chiqindilarning 65% ushlab 1992 yilda bu miqdor 71% ni tashkil qiladi. Navoiy viloyatida 1992-yilda ushlab qolingan va zararsizlantirilgan chiqindilar miqdori deyarli 91% Toshkent viloyatida 79% Samarqand viloyatida 75,1% foizni tashkil qilgan holda Buxora, Qashqadaryo, Sirdaryo viloyatlarida 18,8% dan 34,2% gacha bo'ladi.

Turg'un manbalarda havoga chiqarilayotgan chiqindilarni tutib qolish va zararsizlantirish bilan birga talay miqdordagi zaharli chiqindilar havoni ifloslab kelmoqda. 1992-yilda jami bo'lib 1107,8 ming tonna chiqindi havoga chiqarildi, buning 203,3 ming tonnasi qattiq, 904,5 ming tonnasi gazsimon va suyuq moddalardan iborat bo'ldi. Shu jumladan oltingugurt angedredi -455,2 azot oksidi -100, uglerod oksidi 159,1, uglevodorod -157,5 ming tonna.

Havoga chiqarilayotgan chiqindilarning kata qismi gazsimon va suyuq moddalar bo'lib, ularning tarkibi ko'proq oltingugurt angedridi (Qrshida 30,7 ming tonna) uchuvchi organik birikmalar va boshqalardan iborat.

Atmosfera havosini ifloslanishida bazan mahalliy zonalar (malum chiqindi moddalar guruhi bo'yicha tarkib topadi ular shu maydagi sa'noat korhonalari yoki tutunlarning chiqindilari tugunlari bilan bog'liqdir. Ko'pincha kimyo, neft va gazni qayta ishlash mikrobiologiya sa'noat qara va rangli metalurgiya va boshqa korhonalari chiqindilari. Shunday zonalarini hosil qiladi)

Ularining havoga chiqarilgan texnogen chiqindilari tarkibida qo'rg'oshin, oltungugurt va xlorid ishqori, vanadiy oksidi benzopirin va ko'pgina va boshqa yuqori darajada tasirchan moddalar bo'ladi bunday moddalar soni 150 dan bo'ladi. Bir varakayiga ko'p miqdorda chiqindi chiqarib yuborish hollari ham bo'ladi. Bunday chiqindi chiqarish ham hech joyda qayd etilmaydi shuning uchun ham havoning ifloslanish darajasi bazi sanitariya meyoridan ko'proq ham bo'lishi mumkin. Bu hol chang va zahar gazlarni tutib qoluvchi hamda tozalovchi moslamalarning buzulib qolishi korxonada buzilish hodisalarning yuz berishi yoki oylik ishlab chiqarish rejasini tezroq va ko'proq bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

Atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning inson organizmiga bevosita yoki bil vosita zararli tasir ko'rsatmaydigan miqdori ruxsat etilgan miqdor deb yuritiladi. Bunda zararli birikmalarning odam mehnat faoliyatiga va kayfiyatiga putir yetkazmasligi inobatga olinadi.

Havo ifloslanishining muntazam ruxsat etilgan miqdordan yuqori bo'lishi aholi yashash joylarida havoning ifloslanganlik darajasi va tasir ruxsat etilgan miqdor ko'rsatgichlari bo'yicha aniqlanadi agar ruxsat etilgan miqdor miyyoridan oshib ketsa kasalliklarning darajasining ortishiga olib keladi

Atmosfera havosi tarkibida qo'rg'oshin, margumush, mis va boshqa og'ir metallarning qattiq birikmalari oltungugurt gazi uglerod oksidi fitor nirikmasi azot oksidi amiak uglevodorodlar boshqa gazsimon va suyuq moddalar miqdori darajasidan oshib ketgan taqdirda kishi organizmiga ta'siri quydagicha sodir bo'ladi. Oltungugurt oksidi va uning boshqa birikmalari xrom havoda 0.085 mg dan ziyod bo'lganda ko'zning shilliq pardasini va nafas olish yo'lini yallig'lantiradi. Oltungugurt gazi REM dan 0.05 mg oshganda organizmning og'ir bronxit gastiret laringet bilan og'rishiga olib keladi nafas olish yo'lida ilgari mavjud bo'lgan kasalliklarni qo'zg'aydi bosh miyaning bazi funksiyalarini o'zgartiradi bolalarni o'sishidan orqadan qolish yuz beradi o'pkada yangi elimentning vujudga kelishi kuzatiladi

Uglerod oksidining REM dan 0.5 mg ga ortishi gemoglobin harakatini kuchaytiradi. To'qimalarda kislarodning yetishmasligiga olib keladi asab yurak qon tomirlari tizimlarining betartib harakatlanishini keltirib chiqaradi, aterosiklerozning kelib chiqishiga sabab bo'ladi

Uglevodorodlar REM 25 mg dan oshsa nafas olish yo'llari yallig'lanadi ko'ngil aynishi paydo bo'ladi bosh aylanadi uyquchanlik kuchayadi nafas olish va qon aylanish ishdan chiqadi.

Azot ikki oksidi miqdori REM 0.66 mg dan ortsa organizmda o'pka nafas olish yo'llarini kuchli yallig'laydi ularda shamollashning kuchayishiga ko'maklashadi qon borishi kamayadi.

Sa'noat va transport change miqdori 1m^3 da REM dan 0.5 metr kvadratdan ortsa kishi organizmiga ta'siri uning tarqoqligi sababli sezilarli darajada yuz beradi

Qo'rg'oshinli va uning birikmalari miqdori REM dan oshsa 0.0017 metr kvadratga oshsa to'planish xususiyatiga esa qonning tarkibini o'zgartiradi va miya suyagiga ta'sir ko'rsatadi. Muskullarning kuchsizlantirishini oshiradi asab tizimini buzadi bosh miyaning shamollashi buyrak va jigarning zararlanishi kuzatiladi.

Hozirgi kungacha atmosfera havosidagi 600 ta kimyoviy moddaning REM ishlab chiqilgan shuning dek 38 ta moddalarning birlashib tasir qilishi urganilgan bo'lib, ular uchun meyyorlar belgilangan. Masalan quydagi REM ko'rsatgichlarni ajratish mumkun

Is gazi $0.001 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Oltungugurt gazi $0.05 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Xlor $0.06 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Fenol $0.01 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Formolozogit $0.003 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Qurum $0.05 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Uglerod oksidi $5.00 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Azot oksidi $0.400 \text{ m}^2 / \text{m}^3$

Chang $0.500 \text{ m}^2 / \text{m}^3$ va boshqalar turli moddalarning ta'sir darajasiga qarab turli hil REM ko'rsatgichlari belgilangan

Atrof muhitning huquqiy meyorlari turlaridan biri qonun kuchiga ega bo'lgan texnik meyorlar va standartlardir masalan GOST 17.23.01-86 atmosfera Aholi yashaydigan punkitlarda havo sifatini nazorat qilish qoidalari GOST 17.00.04-90 sanoat korxonasining ekologik pasporti.

Tabiatni myhofaza qilish qonunini buzganlik uchun quydagi choralarni qo'llash ko'zda tutilgan

-moddiy aybdorlarga nisbatan jarima solish

-mamuriy ogohlantirish jarima yetkazilgan zararni bartaraf etish malum bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanishdan maxrum etish.

-jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi

Yuqorida qatd etilgan tahlilni etiborga olsak gaz taminot boshqarmasi ham atmosfera havosiga olishlardan darajada ifloslantiruvchi moddalar chiqarilmoqda.

Quydagi bo'limlar bu zararli moddalarning aniqlanib ularni ruxsat etiladigan miqdorlar bilan solishtirish va uni kamaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqarishga harakat qilinadi

Bundan kelib chiqqan hulosa shuki o'simliklar dunyosi atmosfera havosini meyyorlashtirib turadi

Sekin asta bo'lsa ham hozirgi kunda atmosfera havosida ta'sirni oldini olish chora tadbirlar keng miqiyosda tushuntirish ishlari olib borilmoqda

1.6. Hududning meteriologik holati.

Issiq davrda yani yozning o'rtalarida havoning harorati 43-44 gradus gacha yetadi. O'rtacha harorati esa 38,5 gradusni tashkil etadi. Qish oylarida havoning o'rtacha harorati 0,7 gradusni tashkil etadi. Shamolning o'rtacha yillik tezligi 3,3 m/s ni tashkil qiladi. Yillik yog'ingarchilik miqdori esa 250,7 mm ga yetadi. Yog'inlarning qish va bahorda ko'proq yog'ishi qishloq xo'jaligi uchun ancha qulaylik tug'diradi. Chunki bu paytda suv kam bulg'anib, tuproqda kam to'planadi. Yaylovlarda o'simliklar va bahorgi ekinlarning o'sishi uchun sharoit yuzaga keladi. Yoz oylarida esa yog'inlarning deyarli yog'masligi qishloq xo'jaligi ekinlarining suniy sug'orishni taqozo etadi. Ko'pincha bahorda tog' oldi va tog'larda bo'ladigan do'l hodisasi va tekisliklarda qattiq jala yog'inlarining bo'lishi qishloq xo'jaligiga kata zarar keltiradi.

Do'l va jala zarar yetkazgan ekinlarning qayta ekishga to'g'ri keladi.

Qashqadaryo viloyatining yillik o'rtacha yog'in miqdori .

Meteriologgiya stansiyasi	Dengiz sathidan balandligi m hisobida	Yog'in miqdori, mm	Meteriologgiya stansiyasi	Dengiz sathidan balandligi m hisobida	Yog'in miqdori, mm
Muborak	228	131	Kitob	658	545
Koson	340	199	Varganza	817	496
Qarshi	378	187	Hazrati bashir	1108	636
Kasbi	320	250	G'uzor	524	285
Qamashi	520	327	dehqonobod	874	277
Chiroqchi	543	386			
Yakkabog'	575	364			

Qamashi tumanida qurg'oqchilik garimsel chang bo'ronlari tumanlar sovuq urushlar qor kochkilari sel yer yuzasi va yo'llarni yupqa muz bilan qoplanishi kabi hodisalar ham kuzatiladi bu hodisalardan qishloq xo'jaligi ekinlarini muhofaza qilish uchun meyorativ tadbirlarni qo'llash zarur qishda tumanlarning bo'lishi yo'llarning yupqa muz bilan qoplanib qolishi transport vositalarda qiyinchiliklarni vujudga keltiradi qishda tumanning hamma joylarida qor yog'adi ammo tekisliklarda u uzoq turmaydi

